



Bo'lajak pedagoglarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda huquqiy madaniyatning pedagogik ahamiyati

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna –

Termiz davlat universiteti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.v.b., dotsent

E-mail: norboyevas67@gmail.com | ORCID: <https://orcid.org/0000-0002-1580-8569>

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonida huquqiy madaniyatning pedagogik ahamiyati tahlil qilingan. Maqolada tayanch ma'naviy kompetensiyalar tarkibi, huquqiy madaniyatning ta'lim jarayonidagi o'rni, pedagogik deontologiya tamoyillari va huquqiy ongni rivojlantirish mexanizmlari nazariy hamda amaliy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida bo'lajak pedagoglarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish orqali ularning ma'naviy-axloqiy qarashlari, kasbiy mas'uliyati va shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlash mumkinligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: tayanch ma'naviy kompetensiyalar, huquqiy madaniyat, pedagogik deontologiya, Prezident qarorlari, pedagogik jarayon, ma'naviy-ma'rifiy ishlar.

Педагогическое значение правовой культуры в развитии базовых духовных компетенций будущих учителей

Аннотация. В статье анализируется педагогическое значение правовой культуры в процессе формирования базовых духовных компетенций будущих педагогов. В статье анализируются состав базовых духовных компетенций, роль правовой культуры в образовательном процессе, принципы педагогической деонтологии и механизмы развития правосознания с теоретической и практической точки зрения. В исследовании обосновывается возможность укрепления духовно-нравственных воззрений, профессиональной ответственности и личностной позиции будущих педагогов посредством формирования правовой культуры.

Ключевые слова: базовые духовные компетенции, правовая культура, педагогическая деонтология, указы Президента, педагогический процесс, духовно-просветительская работа.

Pedagogical significance of legal culture in developing basic spiritual competences in future teachers

Annotation. This article analyzes the pedagogical significance of legal culture in the process of developing basic spiritual competencies in future educators. The article analyzes the composition of basic spiritual competencies, the role of legal culture in the educational process, the principles of pedagogical deontology, and the mechanisms for developing legal awareness from a theoretical and practical perspective. The research substantiates the possibility of strengthening the spiritual and moral views, professional responsibility, and personal position of future educators through the development of legal culture.

Keywords: basic spiritual competencies, legal culture, pedagogical deontology, Presidential decrees, pedagogical process, spiritual and educational work.

KIRISH

Bugungi kunda pedagog kasbi nafaqat bilim va metodik ko'nikmalarni, balki yuqori darajadagi ma'naviy-axloqiy va huquqiy madaniyatni ham talab etadi. Bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalari – ularning shaxsiy vijdoni, ijtimoiy javobgarligi, axloqiy me'yorlari va qonunlarga hurmati – ta'lim tizimini va jamiyat ma'naviy muhitini rivojlantirishda hal qiluvchi omil hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning so'nggi yillardagi ta'lim va ma'naviy-ma'rifiy sohadagi islohotlari aynan pedagoglarning ma'naviy-huquqiy tayyorgarligini kuchaytirishni davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylantirdi: Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi tasdiqlangan.

So'nggi islohotlar ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirish, pedagoglarning nufuzini oshirish va ta'limda ma'naviy hamda huquqiy komponentlarni integratsiyalashni o'z ichiga oladi. Prezident Farmonlari va qarorlari ta'lim-tarbiya jarayonida huquqiy madaniyatni shakllantirish mexanizmlarini mustahkamlashga yo'naltirilgan amaliy chora-tadbirlarni belgilaydi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-son Farmoni, 06 noyabr 2020 y. UP-6108 qarori bu qaror ta'lim va tarbiya, ilm-fan sohalarini tub modernizatsiya qilish, pedagoglarga huquqiy himoya va ijtimoiy hurmatni ta'minlashni ko'zda tutadi. Unda pedagoglarning ijtimoiy-huquqiy statusini kuchaytirish masalalari alohida qayd etilgan.

Shuningdek, ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tubdan takomillashtirishga oid videoselektor yig'ilishlari va ma'naviyat sohasidagi davlat tashabbuslari pedagogik amaliyotga bevosita ta'sir etadi; bu esa bo'lajak pedagoglarning huquqiy ongini va ma'naviy majburiyatlarini shakllantirish uchun yangi tarkibiy yondashuvlarni zarur qiladi. Prezident tashabbuslari doirasida davlat va jamoat institutlari hamkorligini kengaytirish, ma'naviyatni targ'ib etish uchun muassasalar tashkil etish kabi chora-tadbirlar ko'rsatildi.

Ushbu ilmiy maqola “Bo'lajak pedagoglarda tayanch ma'naviy kompetensiyalarni rivojlantirishda huquqiy madaniyatning pedagogik ahamiyati” mavzusini o'rganishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – milliy ta'lim siyosati va Prezident qarorlari negizida pedagogik amaliyotda huquqiy madaniyatni qanday pedagogik usullar va tarkibiy bo'limlar orqali integratsiyalash mumkinligini nazariy va amaliy jihatdan aniqlashdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-yanvardagi “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida”gi PF 5618-son Farmoniga muvofiq, “jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish “shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat” tamoyili bo'yicha tizimli va uzviy tashkil etiladi”. 2019-yil 13-dekabrda “Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash, bu borada jamoatchilik nazoratini kuchaytirish hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ 4551-son qarori huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish borasidagi dolzarb vazifalarni belgilab berdi.

Jamiyatda aholi huquqiy ongi va madaniyati darajasining yuksakligi – demokratik huquqiy davlat va erkin fuqarolik jamiyatining muhim mezonlaridan biri hisoblanadi. O'zbekistonda mustaqillikning ilk yillaridan ushbu masalaga alohida e'tibor qaratildi. Aholining huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Huquqiy ong sub'yektiv ongning shakllaridan biri bo'lib, u insonlarda huquq talablari yuzasidan ijobiy yoki salbiy munosabatni ishlab chiqishiga ta'sir etadi. Huquqiy ong tushunchasiga quyidagicha ta'rif berish mumkin: huquqiy ong bu jamiyatning taraqqiyot darajasi bilan belgilanadigan ijtimoiy ongning muhim bir tarkibiy qismi bo'lgan, insonlarning huquq, siyosiy-huquqiy hodisalar, yuridik amaliyot, huquqiy tizim va istalayotgan, kutilayotgan huquq haqidagi fikrlari, o'ylari, his-tuyg'ulari, qarashlari, iztirob-kechinmalari hamda baholari va tasavvurlari majmuasidir.

Shu o'rinda ma'naviy kompetensiya va huquqiy madaniyatga berilgan ta'riflarga e'tibor qaratamiz:

Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir. Shu bois, huquqiy madaniyat deganda, jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilgan ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan qonunga itoatgo'ylik va mamlakatda huquqiy-tartibot muhitini o'rnatish uchun ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning amalga oshirilishi tushuniladi.

“Huquqiy madaniyat” tushunchasi ko'proq huquqiy voqelikning ahamiyatlilik darajasini, uning tobora rivojlanish holatini, unga madaniy taraqqiyot yutuqlari singib borishini tavsiflaydi. Zero, huquqiy madaniyat shaxs erkinliklari va xavfsizligini, inson huquqlarini ta'minlash sharti, uning huquqiy himoyalanganligi va fuqaroviy faolligining kafolati hisoblanadi, hokimiyatni insonning huquqiy maqomini ta'minlashga safarbar etadi. Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirishda, eng avvalo, ta'lim-tarbiyaning tizimli va uzviy ravishda olib borilishiga alohida e'tibor qaratish, maktabgacha ta'lim tizimidan boshlab, aholining barcha qatlamlariga huquqiy ong va huquqiy madaniyatni chuqur singdirish, shaxsiy manfaatlar hamda jamiyat manfaatlari o'rtasidagi muvozanatni saqlash g'oyalarini keng targ'ib qilish zarurdir.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Ijtimoiy munosabatlarni huquqiy tartibga solish, yuridik va jismoniy shaxslarning huquq va manfaatlariga rioya etish, huquqiy normalarni bajarish, huquqiy talablarni bilish hamda ularga hurmat bilan munosabatda bo'lishga oid barcha masalalar kishilarning

Norboyeva Sarvinoz Mengaliyevna

huquqiy madaniyati darajasiga bog'liqdir. Jamiyatning huquqiy ustqurmasida huquqiy madaniyat hodisasi, huquqiy hayotning darajasi alohida o'rin tutadi.

Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir.

Shu bois huquqiy madaniyat deganda jamiyatning huquqiy hayoti, uning huquqiy voqeyeligi, normativ-huquqiy hujjatlar, huquqiy ong rivojida erishilganlik darajasini ifodalovchi ma'naviy-axloqiy va huquqiy qadriyatlar tizimi hamda unga muvofiq tarzda qaror topadigan Huquqiy madaniyat – bu kishilarning huquqiy bilim darajasi, huquqqa nisbatan ongli munosabati, huquqni hurmat qilishi va unga rioya qilishidir. Huquqiy madaniyat jamiyat umumiy madaniyatining uzviy tarkibiy qismidir.

Subyektiv tarkibiga ko'ra shaxs (individual), guruh, jamiyat huquqiy madaniyatlarini ko'rsatib o'tish mumkin. Shaxs huquqiy madaniyati huquqni hurmat qilish, huquqdan lozim darajada xabardorlikni nazarda tutadi. Huquqiy madaniyatga ega shaxs:

1. yuridik normalarni muayyan darajada bilishi;
2. ijobiy huquqiy ong egasi bo'lishi, ya'ni huquqni hurmat qilishi;
3. huquqni hurmat qilishga asoslangan xulq-atvor bilan tavsiflanadi.

Guruh huquqiy madaniyati ayrim ijtimoiy guruhlariga, xususan, professional yuristlariga xos. U mazkur guruhning huquqiy ongiga bog'liq. Unga jamiyatda e'tirof etilgan huquqiy qadriyatlar, ayrim shaxslarning huquqiy intilishlari bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Jamiyatning huquqiy madaniyati – bu jamiyat yaratgan ma'naviy qadriyatlarning tarkibiy qismidir. U o'z ichiga huquqiy muloqot va ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning huquqiy vositalaridan foydalanish bilan bog'liq xulq-atvor hamda harakatlarning barcha turlarini qamrab oladi. U ijtimoiy ong darajasi, qonunchilikning holati va xususiyati, mamlakatda mavjud huquqiy tartibotning mustahkamlik darajasi bilan belgilanadi. Jamiyatning huquqiy madaniyati aholining umumiy madaniy darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholi madaniyatining siyosiy, ma'naviy, estetik va boshqa turlari bilan o'zaro aloqador hamda inson (fuqaro) huquqlari va erkinliklarining to'liqligi, rivojlanganligi va ta'minlanganligi; qonuniylik va huquqiy tartibot holati; jamiyatda yuridik fan va yuridik ta'limning rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadi. Yuqoridagilar bilan birga, subyektlarning huquqiy madaniyati saviyasi (darajasi)ga ko'ra uning odatdagi, professional (kasbiy), nazariy turlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

Odatdagi daraja huquqiy madaniyat kishilarning kundalik hayoti doirasi bilan chegaralanadi. Kishilar undan o'z kundalik faoliyatida subyektiv huquqlarni ro'yobga chiqarish, zimmlariga yuklatilgan vazifalarni bajarishda foydalanadi.

Kasbiy darajadagi huquqiy madaniyat yuridik faoliyat bilan o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirish jarayonida doimiy shug'ullanuvchi shaxslarga xosdir. Mazkur daraja huquqni bilish va huquqiy muammolar, huquqiy faoliyatning maqsad va vazifalarini tushunish darajasining yuqoriligi bilan tavsiflanadi.

Nazariy daraja – bu nafaqat huquqni bilish, balki uning teran xossalari va qadriyatlari, amal qilish mexanizmi, huquqning samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni tushunishning yuksak darajasidir

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekiston ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan huquqiy va ma'naviy-ma'rifiy islohotlar natijasida bo'lajak pedagoglarda huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda. Jumladan, Prezident Farmonlari va Hukumat qarorlarida belgilangan vazifalar asosida oliy ta'lim muassasalarida huquqiy fanlar o'quv

rejasiga kengroq integratsiya qilinmoqda, talabalar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimi yo'lga qo'yilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarning huquqiy madaniyati quyidagi uch asosiy omil orqali shakllanadi:

Huquqiy bilimlar – normativ-huquqiy hujjatlarni bilish va ulardan amaliyotda foydalanish ko'nikmalari.

Ma'naviy qadriyatlar – huquqni hurmat qilish, adolat va vijdon tamoyillariga asoslangan shaxsiy xulq-atvor.

Pedagogik faoliyat – o'quvchilarga huquqiy ongni singdirish, ularni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash.

O'tkazilgan kuzatuv va suhbatlar natijalariga ko'ra, talabalar ko'proq nazariy bilimlarga ega bo'lsalar-da, amaliyotda huquqiy masalalarni hal etish, huquqiy hujjatlar bilan ishlashda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlangan. Bu esa huquqiy madaniyatni shakllantirishda amaliy mashg'ulotlar va interfaol metodlarni kengroq qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Shuningdek, huquqiy madaniyatni rivojlantirish jarayonida quyidagi muammolar kuzatildi:

- talabalar orasida huquqiy adabiyotlarni o'qish darajasi pastligi;
- huquqiy mavzularga oid trening va seminarlarning yetarlicha tizimli tashkil etilmasligi;
- ma'naviy-ma'rifiy ishlarning ayrim hollarda faqat rasmiy tadbirlar bilan chegaralanib qolishi.

Yuqoridagi adabiyotlar tahlili va amaliy islohotlar mazmuni shuni ko'rsatadiki, bo'lajak pedagoglarda huquqiy madaniyatni shakllantirish nafaqat huquqiy bilimlarni berish bilan cheklanmaydi, balki shaxsiy ma'naviy-axloqiy qarashlarni, ijtimoiy mas'uliyatni va fuqarolik faolligini rivojlantirishni ham talab etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Avvalo, bo'lajak pedagoglarning tayanch ma'naviy kompetensiyalarini shakllantirishda huquqiy madaniyat hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Chunki pedagog shaxsiy vijdoni, qonunga hurmati va axloqiy pozitsiyasi bilan o'quvchilar uchun nafaqat bilim manbai, balki ijtimoiy-axloqiy namuna hisoblanadi. Shu jihatdan, huquqiy madaniyat pedagogning kasbiy faoliyatida markaziy o'rin egallaydi.

Ikkinchidan, huquqiy bilimlarning nazariy jihatdan o'zlashtirilishi yetarli bo'lsa-da, ularni amaliyotga tatbiq qilish ko'nikmalari to'liq shakllanmagan. Bu esa ta'lim jarayonida interfaol usullar, huquqiy treninglar va amaliy mashg'ulotlarga ko'proq e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, davlat siyosatida qabul qilingan Prezident farmonlari va qarorlari pedagoglarda huquqiy madaniyatni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda. Biroq ularning ijrosi barcha hududlarda izchil emasligi, amaliy mexanizmlarni kuchaytirish lozimligini ko'rsatmoqda.

To'rtinchidan, ta'lim jarayonida huquqiy madaniyatni shakllantirish faqat oliy ta'lim muassasalari bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu borada maktablar, mahallalar, jamoat tashkilotlari va huquq-tartibot idoralari bilan hamkorlikda ishlash samaraliroq natijalar beradi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

1. Oliy ta'lim muassasalarida "Huquqiy madaniyat va pedagogik javobgarlik" nomli alohida modul joriy etilishi, unda nazariya bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlar ham ko'zda tutilishi lozim.

2. Talabalarda huquqiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun interfaol metodlar — rol o'yinlari, keys-stadi, huquqiy treninglar, "moot court" mashg'ulotlarini muntazam o'tkazish zarur.

3. Huquqiy madaniyatni shakllantirish jarayoniga maktablar, mahalla, oliy ta'lim, fuqarolar yig'inlari, advokat va sud tizimi vakillari jalb etilishi, bu orqali talabalarda amaliy ko'nikmalar mustahkamlanishi ta'minlanishi kerak.

4. Pedagoglar va talabalarining huquqiy savodxonligi va huquqqa hurmatini oshirish uchun muntazam seminar-treninglar, huquqiy-ma'naviy targ'ibot tadbirlari tashkil etilishi maqsadga muvofiq.

5. Davlat siyosatida belgilangan huquqiy-ma'naviy islohotlarning hududlarda izchil amalga oshirilishini ta'minlash, monitoring va nazorat mexanizmlarini kuchaytirish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: O'zbekiston, 2017. – 104 b.

2. Sh.M.Mirziyoev Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.

3. "Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida Farmoni bilan tasdiqlangan "Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish konsepsiyasi" // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.01.2019 y., 06/19/5618/2452-son, 11.12.2019 y., 06/19/5892/4134-son.

4. М.Ахмедшаева Давлат механизми ва ҳокимиятлар бўлиниши. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДЮИ, 2005. – 66 б.

5. Давлат ва ҳуқуқ назарияси / масъул муҳаррирлар Ҳ.Б.Бобоев, Ҳ.Т.Одилқориев. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси, 2000. – 528 б.

6. Х.Т.Одилқориев, Ш.У.Якубов Миллий ҳуқуқий тизим ва ҳуқуқий қадриятлар. Монография. – Т.: SMI-ASIA, 2010. – 400 б.

7. J.Jalilov "Ma'naviy kompetensiyalar va ta'limda huquqiy tarbiya". – Toshkent: Fan va texnologiya, 2019.

8. Hans Kelzen. General theory of law and state. – Cambridge: Harvard University Press, 2009. – 517 p.